



## JURNALISTIK FAOLIYATDA SO'ZLASHUV MADANIYATINING O'RNI

**Jabborova Hamida**

Qarshi davlat universiteti, o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854805>

### Annotatsiya

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida adabiy til me'yorlariga rioya etmaslik holatlari yosh jurnalistlar nutqida tez-tez uchraydi. Ayniqsa, og'zaki muloqotga asoslangan ko'rsatuvlarda so'zlashuv uslubida "gaplashayotgan" boshlovchilar, ularning savollariga javob beruvchi respondentlar nutq madaniyati qoidalarini buzayotganliklariga ko'nikib ham qoldik. Tobora odatiy tusga kirgan bu holat chuqur ilmiy tahlillar uchun mavzu bo'la oladi.

**Tayanch so'zlar:** so'zlashuv madaniyati, jurnalist, nutq me'yorlari, radio, televideniye, OAV, adabiy til.

Bizning kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo'lgan OAVga tadqiqotchilar tomonidan katta qiziqish uyg'onmoqda, chunki matbuot, radio va televidenie xodimlari tomonidan mavjud bo'lgan adabiy me'yorlardan bir necha bor chetga chiqish takrorlanib, ular tez va juda muvaffaqiyatli ravishda media auditoriyaning ongi va nutqida ildiz otmoqda, bu hol esa, muqarrar ravishda tilga singib boradi, shu bilan birga OAV ona tilida so'zlashuvchilarga uning ob'ektiv me'yorlarini singdirishi va tilning ifoda vositalarini boyitishga yordam berishi kerak.

Ba'zi amaliyotchilar orasida televideniya eng asosiysi tasvir bo'lib, so'z unchalik katta ahamiyatga ega emas, degan qarashlar ham yo'q emas. Ular zamonaviy jurnalistning qalam tebratishiga ehtiyoji yo'q, yaxshi so'zlay biladigan suhbatdoshni "gapirtirish"ni bilishi yetarli deb hisoblaydilar. Ko'p yillar davomida televideniya so'z yoki tasvirning qay biri muhimligi borasida bahslar bo'lgan. Albatta, ko'rsatuvlarda matn muhim ahamiyatga ega, chunki u asosiy mazmuniy axborotni yetkazadi. Shu bilan birga dasturlarning, avvalambor, ko'rimli bo'lishi kerakligini unutmash zarur. Radio muxlisini biz tinglovchi desak, ko'rsatuv muxlisini tomoshabin deb ataymiz. Radio dasturlarda matn asosiy ma'lumotni bersa, televideniya tasvir asl mohiyatni yetkazuvchi ustuvor xususiyat kasb etadi. Televideniyaning kommunikativ imkoniyatlarini og'zaki nutq hamda ta'sirchan tasvir ochib beradi. Bunda so'z, tasvir va musiqaning o'zaro uyg'unligi dasturning ta'sirchanligini yaratadi. Demak, televideniya tasvir va musiqaning ahamiyatini kamaytirmagan holda, so'zga, jumladan, nutq madaniyatiga e'tibor qaratishni dolzarb masala sifatida e'tirof etsak bo'ladi.






Jurnalistikadagi nutq madaniyatini mutaxassislar uch yo'nalishda tahlil qilishni tavsiya etadilar: matbuot uchun vizual nutq, radio uchun audio nutq hamda televidenie va hujjatli kino uchun audiovizual nutq ko'rinishida. Ya'ni, jurnalistika sohasida nutqqa an'anaviy lingvistik tushunchadan farqli o'laroq yondashuv talab etiladi. Umumiy tilshunoslikni tadqiq etuvchilar nutqni yozma hamda og'zaki nutq ko'rinishida tahlil qilishadi. Unda fikr ifodasi faqat so'z bilan kechadi. Jurnalistikada esa so'z — asosiy, lekin yagona fikr ifodasi emas. Matbuot tili matndan tashqari o'z ichiga illyustratsiyalar (fotosuratlar, tasvirlar, infografika, sxemalar va hokazo) hamda qo'shimcha bezak vositalari (shriftlar, qaysi polosada berilgani, ranglar bilan uyg'unligi va hokazo) o'z ichiga oladi. Radiodagi nutq so'zlar sintezi (diktsiya, intonatsiya, pauza va orfoepik me'yorlar), musiqani (jurnalist materialini bezovchi ohanglar) hamda shovqin effektlarini o'z ichiga oladi. Televideniya nutqi esa so'zlarning uyg'unligi (ovoz xususiyatlari bo'lgan audio nutqdan tashqari so'zlayotganlarning xatti-harakatlari, mimikasi) hamda tasvir (rakurs, nur va soya ta'sirchanligi va hokazo)ni ko'rishimiz mumkin. Axborotni borligicha ko'rish imkoniyatini bergani uchun televideniya materiallari boshqa OAVlardan ta'sirchanligi bilan ajralib turadi.

Radioda axborot yetkazish zarurati bevosita muloqotga kuchli moyillikni keltirib chiqaradi. Bu ham har qanday kommunikativ akt qatnashchisining nutqiy faoliyati axborot va faktik birliklardan iborat ekanligidan dalolat beradi. Birinchi o'ringa nima chiqishiga – axborotmi yoki muloqot, qanday muloqot doirasida biri ikkinchisiga bo'ysunadi yoki biri ikkinchisidan ustun keladi, shunisiga qarab so'zlovchi va tinglovchining kommunikativ roli, ularning nutqiy faoliyat turi aniqlanadi.

OAVda, ayniqsa, muloqotga asoslangan teleko'rsatuvlarda jurnalist va boshlovchilar nutqidagi nuqsonlar audiovizual nutqning barcha unsurlarini mukammal egallay olmaganliklarini namoyon etmoqda. Boshlovchi nutqidagi lisoniy xatoliklar yoki ovozdagi deffektlar, albatta, tomoshabinlar e'tiboridan chetda qolmaydi. Nutqiy madaniyati yaxshi shakllangan muxlislar bunga salbiy baho berishsa, barcha yangilanishlarni borligicha, ba'zan zamonaviylik tarzida qabul qiladigan o'smirlar ana shunday nutqdagi nuqsonlarni me'yor darajasida qabul qilishlari mumkin. Bu esa ularning tarbiyasiga, ma'naviy kamolotiga salbiy ta'sir qilishi turgan gap.

Nutq madaniyati har bir xalqning o'ziga xos qadriyati ekanligini unutmazlik zarur. Masalan, yoshlar internet tili sifatida orfografik xatolar bilan, shevada yozishni bugungi kunda me'yor deb bilmoqda. Bu yozishmalarni an'anaviy





maktub, kundalik sifatida qabul qilsak, yoshlar orfografik hamda stilistik xatoliklar bilan yozishga o'rganib qolishgani bugungi kunda achinarli. Boshlovchi jurnalist qatorida studiyaga taklif qilingan mehmonlarning ham adabiy til me'yorlariga rioya qilmagan holatda o'z fikrlarini bayon etishlari muloqotga asoslangan dasturlarning "o'ziga xos"ligiga aylanib ulgurmoqda. Ba'zan bu holatlar samimiyat, tabiiylik ruhini bersa ham, har bir millatning madaniy qadriyati bo'lgan adabiy til me'yorlariga ziyon yetkazadi. Tarozining bir pallasida dasturlarning og'zaki nutqdagi samimiy suhbat tursa, ikkinchi pallasida adabiy til me'yorlarining buzilishini ko'rishimiz mumkin. Jurnalistning foliyat mahsuli milliy mentaliteti, ruhiyati, tariximiz hamda qadriyatlarimizni hisobga olib tayyorlanishi talab etiladi.

Jurnalist boshlovchilarning zamonaviy imijini hosil qilishda yangi kirib kelgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi davrda OAV leksik tilida ham zamonaviy adabiy tilning yangilanish jarayonlari aks etadi. "Publitsistik uslubning har ikki shakli (og'zaki va yozma) nafaqat so'zlar, shuningdek, bir qator sintaktik tuzilmalar ham faollashdi. Dastur boshlovchilari nutqimizga kirib kelgan yoki o'zlashgan so'zlarni qoidaga muvofiq aniq talaffuz qilishlari hamda yozma nutqda to'g'ri yozilishi kerak. Mazkur yangi so'zlarning bugungi kunda to'g'ri talaffuz qilinishi, yillar o'tib ularning orfografik xatolarsiz yozilishiga ham zamin hozirlaydi.

Yurtimizga tashrif buyuruvchi xorijlik sayyohlar moziydan xabar beruvchi mahobatli inshootlarni ko'rib, ularga mahliyo bo'lishadi. Qadimiylikda ana shu ulkan binolarga teng bo'lgan tilimiz bugun xalqimizning o'ziga xos madaniy boyligiga aylangan. Uni asrab-avaylash, kelajak avlodga bor jozibasi bilan yetkazishda radio, televideniya va matbuotdagi jurnalistlarning alohida o'rni bor.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Авраамов Д. С. Профессиональная этика журналиста: Парадоксы развития, поиски, перспективы / Д. С. Авраамов. – М.: Мысль 1991.
2. Богомолов Ю. А. Диалектика продуктивного и репродуктивного в творчестве на радио и ТВ / Ю. А. Богомолов. – М.: Искусство, 1986.
3. Ляшенко Б. П. Радио без тайн: Рассказ неизвестного диктора / Б. П. Ляшенко. – М.: Искусство, 1990. – 223 с.
4. Шерель // Методологические проблемы изучения средств массовой коммуникации. – М.: Наука, 1985. – 197 с.
5. Шерковин Ю. А. Психологические проблемы массовых информационных процессов / Ю. А. Шерковин. – М.: Мысль, 1973.

